

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (dastlabki ma'lumot)


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 9,7 trln.so'mni, o'sish 10,3%ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati -108,7 %
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - 16,0 %
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 16,2 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar- aprel oylarida Toshkent viloyati korxonalarini tomonidan 9,7 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 9,6 % ga , tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 1,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 26,4 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 31,8 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-aprel oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1316,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,5 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7290,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 75,0 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1079,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,1% ni) tashkil etdi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1553,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 8,7 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 16,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 36,8 % dan 2018 yilning yanvar-aprel oylarida 36,6 % ga kamayishi kuzatilmoqda.


Yanvar -aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 30,5 % ulushini), Bekobod shahar (19,0 %), Zangiota (8,8 %), Chirchiq shahar (6,8 %) Qibray (6,2%) tumani, Angren (6,2 %) shahar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Piskent, (0,5 %), Ohongaron, Oqqo'rg'on , Parkent (0,6 %), Quyichirchiq, Bekobod (0,7 %) va Bo'ka (0,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Angren shahrida (2017 yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 133,2 % ga), Bekobod (130,6 % ga), Chirchiq shaharlarida (128,4 % ga) Yangiyo'l (172,0 % ga), Zangiota tumanlarida (122,0 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,2 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Parkent (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (72,2 %), Bekobod (61,4 %), Bo'ka (60,8 %), Yuqorichirchiq (60,2 %), Toshkent (58,2 %), O'rtachirchiq (57,3 %), Piskent (54,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Bekobod va Olmaliq (1,6 %), Ohongaron (7,5 %) Angren (10,7 %) shahrida kuzatildi.

2018 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da

